

BADIIY TARJIMADA QO'LLANGAN O'XSHATISH QURILMALAR LINGVOPOETIKASI

Muslima Rustamova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili turli aspektlarda tadqiq qilinadi va yondashuvlar ham shunga ko'ra turli shakllarda bo'ladi. Xususan, badiiy asar tilining uslubiy, lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish, badiiy nutqning emotsional-yekspressiv leksikasini tadqiq qilish yoki tasviriy vositalarning badiiy matndagi o'rnini belgilash orqali ijodkor mahoratini ochib berish kabilar ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Shuningdek, tarjima asarlar tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish muammosi ham hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydigan ilmiy masalalar qatorida sanaladi. Badiiy asar tarjimasida eng ko'p tilga olinadigan masala tabiiy o'laroq, o'xshatishlar va milliy idrok tarzi bilan bog'liq tushunchalar hisoblanadi. Maqolada Kobo Abening "Qumdagi xotin" romani tarjimasidagi o'xshatishlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kobo Abe, "Qumdagi xotin" romani, tarjima, o'xshatishlar, leksik-semantik xususiyatlar.

Annotation. In global linguistics, the language of literary works is studied from various aspects, and approaches differ accordingly. In particular, examining the stylistic, linguocultural, and linguopoetic features of literary language, analyzing the emotional-yexpressive vocabulary of artistic speech, and determining the role of figurative means within the literary text are considered key directions for revealing the author's creative skill. Additionally, the issue of studying the language of translated works from a linguopoetic perspective remains a constantly relevant academic topic. One of the most frequently discussed aspects of literary translation naturally involves similes and concepts related to national perception. This article explores the lexical and semantic features of similes in the translation of Kobo Abe's novel *The Woman in the Dunes*.

Keywords: Kobo Abe, *The Woman in the Dunes*, translation, similes, lexical-semantic features.

Tilshunos olim N. Mahmudov "O'xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli" nomli maqolasida o'xshatishlarning yuzaga kelish sababi va badiiy-estetik mohiyati haqida shunday fikrni ilgari suradi: "Avvalo, ta'kidlash lozimki, o'xshatishlar o'ziga

xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmagani, ohorililigi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi.”¹

Badiiy tarjimada individual-muallif o'xshatishlari yoki turg'un o'xshatishlarni berishda tarjimondan katta mahorat va ijodiy yondashuv talab etiladi. Mutaxassislar haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, “tilshunoslik ilmida mantiqiy kategoriya bo'lmish o'xshatishning lisoniy voqelanishi – lingvistik o'xshatishlarga Arastu davridan boshlab katta e'tibor qaratilgan, deyish mumkin. U “ko'chma so'z (metafora) narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko'chirilgan yoki o'xshatilgan so'zdir”, deya ta'rif berilgan ekan, undan so'ng metafora qisqargan o'xshatish, nom ko'chishning alohida bir ko'rinishi yoki nom ko'chishning har qanday usuli sifatida ta'riflanib kelindi. Aytish mumkinki, metafora, o'xshatish hamda iboralarni birlashtirib turgan narsa – ularning barchasi inson ongiga xos bo'lgan qiyoslash-o'xshatish amaliyotiga asoslanadi. Shu bois o'xshatishlar mantiq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi fanlar uchun tadqiqot obyekti bo'la oladi.”²

Badiiy asarda muayyan maqsadlar bilan qo'llanilgan o'xshatishlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida jiddiy muammolar o'rtaga chiqadi. Bu tabiiy hol, chunki o'xshatishlar ma'lum bir xalqning yoki o'sha xalqqa mansub bo'lgan yozuvchining lisoniy madaniyatiga, olamni anglash tarziga, e'tiqodi, dunyoqarashi, saviyasi kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Agar o'xshatish qurilmalar umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar bo'lsa, tarjima tilida uning muqobilini topish nisbatan oson bo'ladi. Masalan, tulkinging ayyorligi, sherning qudrati, toshbaqaning sabri, quyonning qo'rqqoligi, eshakning mehnatkashligi va echkinning sho'xligi juda ko'p lingovmadaniyatlarda deyarli bir-biriga monand. Shu bois tarjimada qiyinchilik tug'ilmaydi. Biroq, individual yoki erkin o'xshatishlar bo'lsa tarjima tilida ham shunga mos leksik-semantik zamin hozirlashga to'g'ri keladi. Ularni asliyatdagi asosdan uzoqlashmagan holda boshqa bir tilda tiklash tarjimondan katta ijodiy tajriba va sabr

¹ Қаранг: Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.

² Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) дисс. автореф. – Андижон, 2019. – Б.32

talab qiladi. Chunki o'xshatishlar milliy tafakkur va dunyoni anglash mexanizmlarini boshqa hodisalarga qaraganda aniqroq aks ettiradi.

“O'xshatishlar turli xalqlar madaniyatini yaqqol namoyon qilib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Ularda ma'lum davrda yashagan ajdodlar kechinmalari, tasavvurlari, milliy va madaniy an'analari muhrlangan bo'ladi. Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi.”³

Ma'lumki, o'xshatishlar muayyan bir millatning dunyoga qarash tarzi, tabiat va jamiyatga munosabati, dunyoni anglashdagi o'zigagina xos tafakkur bichimi va qiyoslash usuli bilan uzviy bog'liq hodisa hisoblanadi. “Xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o'xshatishlarda namoyon bo'ladi.” Dunyo tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi tavsifida muayyan bir xalqning dunyoni qay tarzda idrok etishi, uni til orqali qanday ifoda etishi, boshqalardan farqlovchi milliy-madaniy qarashlari, o'zigagina xos tafakkuri tarzi kabilarning o'rni, shuningdek, tilda namoyon bo'lgan olam manzarasining umumiy va xususiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylangan. O'xshatishlar tilning lingvomadaniy birligi sifatida tadqiq etilishi lozim. Chunki ular har bir xalqning o'ziga xos dunyoga qarash tarzini aniq-ravshan ifodalovchi birliklar sifatida e'tirof etiladi.

Tarjima asarlarda har qanday o'xshatishning asosiy maqsadi asliyatdagi tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-hoatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Buni “Qumdagi xotin” romani tarjimasidan olingan quyidagi parchadan ham ko'rishimiz mumkin: *U yer bu yerda qovjiragan giyohlar orolchadek qorayib turar, xuddi bu yerga yanglishib kelib qolgandek mo'jazgina majmag'il baqlajon paykalchalari ko'rinib qolar edi.* (28-b.)

Mazkur gapdagi o'xshatish konstruksiyada qahramon nigohidagi manzaraning kitobxon ko'zi o'ngida ham aniq va ta'sirchan gavdalantirish maqsad qilingani seziladi. Xususan, qovjiragan giyohlarning uzoqdan qaraganda qorayib ko'rinadigan orolchaga o'xshatilishi, baqlajon paykalchalarining “bu yerga yanglishib kelib qolgandek” beo'xshov va omonat ko'rinishi yozuvchining manzarani usta

³ Некрасова Н. Сравнения общезыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных диалектов // Лингвистика и поэтика. –М.: Наука, 1979. –С. 225; Лебедева Л. Устойчивые сравнения русского языка. –Краснодар: Кубинский ГУ, 2003. –С. 3; Хакимзянов Ф. О слове устойчивых сравнений татарского языка // Российская тюркология. –Москва-Казань, 2010. –№2. –С. 80.

rassomlardek tasvirlash mahoratidan darak beradi. Tarjimon ham yozuvchining nigohida aks etgan manzarani behad aniq va huzurli ifodalay olgan. Zero “tarjimondan nafaqat til bilimdoni, balki adabiyotshunos va elshunos bo‘lish ham talab etiladi. Chunki muayyan xalqning madaniyati, assotsiativ tafakkurini chuqur bilmay, til boyligini yaxshi egallamay turib tarjimon badiiy til vositalarini to‘g‘ri tanlay olmaydi, tilning poetik jihatlarini his etmay, oqibatda tarjima to‘g‘ri va ta‘sirchan chiqmaydi.”⁴

Tadqiqotchi A.Bumatova she‘riy tarjima muammolariga bag‘ishlangan maqolasida tarjimaning bir tilda yaratilgan muayyan asarning o‘zga bir xalq ma‘naviy e‘tiyotiga xizmat qildiradigan, undan badiiy zavq olish uchun imkoniyat yaratib beradigan kommunikativ vosita ekanligini ta‘kidlaydi va tarjimonning erki masalasiga ham to‘xtalib o‘tadi: “Amaliy ma‘noda tarjima muloqot vositasi bo‘lsa-da, ilmiy nuqtayi nazardan uning o‘ziga yarasha qonun-qoidalari borki, ular bir tildan boshqa tilga matn o‘girish jarayonini tartiblab turadi. Tarjimon matn tarjimasida nechog‘lik erkin harakat qila olishi mumkinligi doimiy bahs va munozaralarga sabab bo‘lib keladi”⁵.

O‘xshatishlarda “hodisa yoki voqelikning har xil bo‘lagiga tegishli ikki tushuncha bir-biri bilan biron bir xususiyatiga ko‘ra taqqoslanadi. Bunday o‘xshatishlar *-day (gulday), -dek (tog‘dek), -larcha (bolalarcha)* kabi o‘xshatish ma‘nosini ifodalovchi maxsus vositalar orqali yuzaga keladi. Ba‘zan bu vositalarni o‘xshatish shakllari deb ham atashadi. Bundan tashqari leksik vositalar ham qo‘llaniladi. Bular o‘rnida *kabi, o‘xshash, misoli, xuddi, singari ko‘makchilar, go‘yo, go‘yoki* kabi bog‘lovchilar, *aynan shunday ravishda* kabilar ko‘proq qo‘llanadi.”⁶

“Qumdagi xotin” romani tarjimasida shu qadar o‘xshatish qurilmalar ko‘p va rang-barangki, hammasi haqida to‘xtalishning imkoni yo‘q. Barcha o‘xshatishlar sanab o‘tilgan ko‘makchi, bog‘lovchi hamda leksik vositalar yordamida shakllangan.

Biz o‘xshatish qurilmaning bir o‘rinda bitta yoki birdan ortiq qo‘llanishiga e‘tibor qaratdik. Shunga ko‘ra ularni sodda va murakkab o‘xshatish qurilmalar sifatida tasnif qilishni ma‘qul ko‘rdik: 1) sodda o‘xshatish qurilmalarida o‘xshatish etaloni bitta; 2) murakkab o‘xshatish qurilmalarda bittadan ortiq bo‘ladi. Zanjirsimon o‘xshatishlar ham bog‘lanishli tarzda shakllantirilgan birdan ortiq o‘xshatishli qurilma bo‘lib, murakkab o‘xshatish qurilmalar tarkibiga kiradi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, **zanjirsimon o‘xshatishlar** termini birinchi marta bizning tadqiqotimizda qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, bir xil obraz yoki qurilmalarning ketma-ket tarzda bog‘lanib kelishiga nisbatan zanjirsimon termini tilshunoslikda ko‘p kuzatiladi. Masalan, Mahfuza Davronovanning “Mazmun va janr xususida ba‘zi mulohazalar” nomli maqolasida (“O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal, №1/2018)

⁴ Rixsiev G. Tarjima nazariyasi va tanqidi muammolari. / «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi, 2014 yil 10-son. (Davra suhbatini Ahmad Otoboyev tayyorlagan.)

⁵ Буматова А. Ўша манба.

⁶ Сабиров М. (2022). Ўхшатишларни таржима қилиш хусусиятлари . Переводоведение: проблемы, решения и перспективы, (1), 91–93. https://inlibrary.uz/index.php/translation_studies/article/view/6010.

zanjirsimon obrazlar termini qo'llanilgan. Yoki Muhayyo Hakimovning "O'zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi" (Toshkent, 2019) nomli dissertatsiyasida zanjirsimon polisemiya atamasi faol qo'llanilgan. Tilshunos To'lqin Allayorov ham o'zining "O'zbek tilidagi buyruq va so'roq konstruksiyalarining lingvopoetik xususiyatlari" (Guliston, 2020. -B.98) deb nomlangan dissertatsiyasida qatorlashib kelgan so'roq qurilmalar uchun zanjirsimon interrogativlar atasini qo'llaydi: "Yozuvchi qahramonlari bitta so'roq gap bilan kifoyalanmaydi. Bir so'roq jumla boshlandimi, ortidan qatorlashib boshqalari kelaveradi, javobi bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, bunday qatorlashgan so'roqlar, aytish mumkin bo'lsa, zanjirsimon interrogativlar – muammo sifatida taqdim qilingan holatni batafsil yoritish, o'rta chiqarish va shunga mos mukammal javob topilishi zarurligi ehtiyojidan kelib chiqib tuziladi." Mazkur termin aniqligi, o'zbek tili mantig'iga mosligi, hodisa mohiyatini o'zida aks ettirish va ishlatishga qulayligi bilan e'tiborga molik. Biz ham shu jihatlarini hisobga olib mazkur termindan tegishli o'rinlarda hodisa nomiga moslab foydalandik. Tahlil jarayonida o'xshovchi va o'xshatiluvchi ob'ektlar tabiatiga ko'ra aniq yoki mavhumligi, asliyatga mos yoki farqliligi, tarjimada vositachi tilning ta'siri kabi holatlarga munosabat bildirildi. Misollarning har biri alohida tahlil qilindi, chunki tarjima jarayonida o'xshatish qurilmalar eng ko'p transformatsiyaga uchragan konstruksiyalar hisoblanadi.

Sodda o'xshatish qurilmalarida, aytib o'tilganiday, o'xshatish etaloni bitta bo'ladi. Badiiy tarjimada individual-muallif o'xshatishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki bunday qurilmalarda muallifning o'zigagina xos bo'lgan nigohi, uslubi, badiiy tasavvuri aks etadi. Individual-mualliflik o'xshatishlarida etalon hamisha badiiy-yestetik ta'kid oladi hamda poetik aktuallashadi.

Misollarga e'tibor qilaylik: *U suvdonidan qultumlab suv ichib, chuqur nafas oldi, juda sof tuyulgan havo tomog'ini xuddi jilvir qog'ozdek qirib o'tdi.* (29-b.) しかし、目指す早急にたどり着けたのだから、これでいい。男は水筒の水を含み、それから口いっぱい風を含みと、透明に見えたその風が口の中でざらついた。 [Shikashi, mezasu sakyū ni tadoritsuketa nodakara, kore de i. Otoko wa suitō no mizu o fukumi, sorekara kuchi-ippai ni kaze o fukumu to, tōmei ni mieta sono kaze ga, kuchi no naka de zaratsuita.] Mazkur misolda havoning tomoqni qirib o'tishi tomoqdan xuddi jilvir qog'oz o'tgandek yoqimsiz bir holat yuzaga kelishiga qiyoslanadi. Asar asliyatida bu tasvir quyidagicha ifodalangan: "Shunday bo'lsa-da, u ko'zlagan qumtepalarga etib keldi, shuning uchun ham o'zini yaxshi his qilardi. U suvdonini suv bilan to'ldirdi, keyin esa shaffof shamolni ichiga tortdi, bu esa biroz uni jig'iga tekkandek edi." (120-b.) "Yoqimsizlik" ma'nosi asliyatda jig'iga tegmoq frazeologizmi orqali berilgan bo'lsa, tarjimada o'xshatishli obrazli ifodada berilgan. Natijada fikrning aniq va ta'sirchan ifodalanishiga imkon yaratilgan.

Ma'lumki, mavjud ko'pgina tadqiqotlarda qiyoslash bir predmetni boshqasiga o'xshatishdan iborat stilistik vosita degan fikr qaror topgan. Ammo bu tadqiqotlarda bunday o'xshatishlar qaysi maqsadda qilinayotgani ko'rsatilmaydi. Fikrimizcha, o'xshatish, eng avvalo, qandaydir belgini hodisaga nisbatlashning muhim vositasidir. Bir predmet yoki hodisani boshqasiga o'xshatish birdan-bir maqsad bo'lmasdan, shu belgini, ya'ni obrazni taqdim etish vositasidir. Mana bu misolga e'tibor beraylik: *Qum tepaning g'arbiy uchi pastlab borib yo'qoladigan tomonda, dengiz ustida chog'roqqina qoya qad ko'targan edi. Uning ustida quyosh nuri xuddi dasta-dasta o'tkir ignalarga o'xshab ketardi.* (35-b.) Ma'lumki, deyarli ko'pchilik lingvomadaniyatlarda quyosh nuri tig', nayza, nashtar shamshir, xanjar kabi tig'dor predmetlar asosida konkretlashtiriladi. Bunday o'xshatishlarda quyosh nurlari o'xshatiluvchilari "dag'al" predmetlardir. Yuqoridagi parchada esa quyosh nurlari nisbatan "nozik", "ingichka" predmetga – dasta-dasta o'tkir ignalarga o'xshatiladi. Bu ham muallif kuzatishining badiiy jihatdan balog'atga daxldor ekanligini ko'rsatadi.

Yana bir misol: *Odam shamol xuddi mashina bilan yasagandek puxta naqsh qilgan jimjimador qumdan yurib ilgarilab ketdi. Birdan ko'z o'ngidagi hamma narsa g'oyib bo'lib, u o'zini chuqur o'ra labida ko'rdi.* (35-b.) Tasvirdagi tiniqlik har qanday kitobxonning e'tiborini tortmay qolmaydi. Odamning qum ustida ilgarilab borayotganligini ifodalay ekan, muallif kitobxon e'tiborini qumdagi estetik shakllarga qaratadi. Qum shunchaki qum emas, xuddi mashina bilan yasagandek puxta naqsh qilgan jimjimador qum ekanligini tasavvur qilish kitobxoniga ham huzur bag'ishlashi aniq.

Kobo Abening tasvir yaratishdagi muvaffaqiyati shundaki, tasvir obyektining eng mayda detallarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Masalan, bir o'rinda qumdagi chuqurning chetlarini kosa chetidek silliq va sirg'anchiq deya detallashtirsa, qahramon ovozi priyomnikdan chiqayotgan shirasiz tovushga o'xshatadi: *Chuqurning xuddi chinni kosa chetidek silliq va sirg'anchiq, do'ppaygan labida oyoq sirg'anardi.* (36-b.) *Ovozini el uchirib ketdi, ovozi xuddi ko'chirma priyomnikdan chiqayotgandek shirasiz, g'o'ng'illab eshitilar edi. Ammo so'zlari dona-dona, tushunib olish qiyin emas edi.* (36-b) Hatto so'lakni ham o'xshatish qurilma orqali faollashtiradi. *Shamolda so'lak xuddi uzun ipdek cho'zilib ketdi.* (37-b.) Yoki muomalaning ham turiga ko'ra taqsimlab tasvirlaydi: *Yendi ko'ngillari joyiga tushdi, shekilli, oddiy baliqchilardek muomala qila boshlashdi.* (38-b) Xo'sh, bunda oddiy baliqchilardek muomala ijobiymi yoki salbiy baho ifodalayaptimi? "*Ko'ngillari joyiga tushdi, shekilli*" gapi bunday muomalaning ijobiy holat ekanligini ta'kidlab turadi. Yoki: *Yerga to'shalgan poxol bo'yralar to'kilay-to'kilay deb turibdi, oyog'ing tegishi bilan xuddi ho'l narsani bosgandagidek tovush chiqadi.* (41-b.) Uy interyeri tasvirida ham detallashtirishga katta e'tibor qaratgan yozuvchi erga to'shalgan va eskirib to'kilay-to'kilay deb turgan bo'yralardan chiqadigan tovushni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Shuningdek, burgalar chiqarayotgan ovozni ham shu qadar aniq

tasvirlaydiki, qaysi millat bo'lishidan qat'i nazar kitobxon ayni tasvirni o'qiganda holatni ko'z oldiga keltira oladi va burgalar ovozi aniq-tiniq eshita oladi: *Xotinning taklifi bilan yer o'choqning oldiga endi o'tirgan ham ediki, atrofida xuddi yomg'ir tomchilayotgandek sas eshitildi. Bu g'ujg'on o'ynayotgan burgalar edi.* (41-b.)

Uning o'xshatishlarida ham yapon mentalitetiga xos behad kuzatuvchanlik anglashilib turadi, asarning bir o'rnida og'riqdan qaddi bukilgan ayol holatini “*Xotin tuxum qo'yayotgan aridek birdan ikki bukildi...*” (117-b.) tarzida ohorli tasvirlaydi. Xotinning birdan ikki bukilganligini tasavvur qilish mumkin, biroq aynan tuxum qo'yayotgan aridek bukilishini tasavvur qilish o'ziga yarasha mehnat-mashaqqat talab qiladi. Umrida arining tuxum qo'yishini kuzatmagan, ko'rmagan odam uchun bu holat begona bo'lib qolaveradi.

Vaqt bamisoli ilonning ichak-chavog'iga o'xshagan uch-qirsiz chigal ipday o'tardi. (118)

Vaqt xuddi otga o'xshab birdan shataloq otib, olib qochmaydi. Ammo zambilg'altakka o'xshab imillamaydi ham. (122-b.)

Keltirilgan misollardagi o'xshatish qurilmalarda yapon lingvomadaniyatiga oid muhim o'xshatish etalonlarini kuzatishimiz mumkin. Vaqtning goh sekin, goh tez o'tishi dastlabki misolda ilonning ichak-chovog'idek chigal ipga o'xshatiladi. Bunda vaqt – o'xshatish obyekti, ilonning ichak-chovog'idek ip – o'xshatish etaloni, -day – o'xshatish vositasi va o'tmoq fe'li o'xshatish asosi. Bu gapda o'xshatishning murakkab turi qo'llanilgan:

1. “Vaqt > ip”
2. “Ip > ilonning ichak-chovog'i”

Birinchi o'xshatish qurilma o'xshatishning asosini tashkil qiladi va fe'l shaklidagi asos bilan yakunlanadi. Ikkinchi o'xshatish qurilma esa ichki, yordamchi o'xshatish qurilma bo'lib, birinchi qurilmaning etalonini kengaytirib tasvirlashga xizmat qilgan. Ya'ni, “vaqt ipdek o'tyapti” deyilmoqchi, biroq qanday ip nazarda tutilganligini ichki o'xshatish qurilmadagi “ilonning ichak-chovog'i” etaloni orqali aniqlashtirilgan. Asosiy o'xshatish qurilmadagi formant -day affiksi bo'lsa, ikkinchi qurilmada “o'xshagan” sifatdoşidan foydalanilgan.

Vaqt xuddi otga o'xshab birdan shataloq otib, olib qochmaydi. Ammo zambilg'altakka o'xshab imillamaydi ham. (122-b.)

1. “Vaqt > ot emas”
2. “Vaqt > zambilg'altak emas”

Bu misolda ham vaqtning o'tishi ikki etalon orqali tavsiflanayapti. Birinchisida ot – etalon, “shataloq otib, olib qochmaslik” – o'xshatish asosi hisoblanadi. “O'xshab” so'zi har ikki etalon uchun ham o'xshatish formanti vazifasida kelgan. O'xshatish asosi birinchi qurilmada “olib qochmaydi” fe'li bilan, ikkinchi qurilmada “imillamaydi” fe'li bilan ifodalangan.

Tong otdi. Peshanasi bilan burnidan o'rmalagan shilliq qurtning qornidek oppoq tong tepasidagi derazadan kulib boqdi. (118)

Bu gapdagi o'xshatish qurilmada ham vaqt bilan bog'liq yapon lingvomadaniyatining o'ziga xos ko'rinishi namoyon bo'lgan. Tong shilliq qurtning oppoq qorniga o'xshatilgan. Mazkur qurilmada o'xshatish jonlantirish va shaxslashtirish bilan birga kelib tasvirning aniqligi va ta'sirchanligiga xizmat qilgan. Ya'ni, tong – oppoq; tong – shilliq qurtning qornidek oppoq; tong derazadan kulib boqdi. Ko'rinib turganidek, o'xshatish obyektining belgisi etalon belgisiga (oppoq) o'xshatilyapti va insonga o'xshab derazadan kulib boqyapti.

Meduzadek dildirayotgan oshqozon... (126-b.)

Oshqozonning holati meduzaning dildirashiga o'xshatilyapti va bu yapon bo'lmagan kishilar uchun tushunarsiz. Dildiramoq fe'li nisbatan tushunarli biroq meduza hammaga ham tushunarli bo'lavermasligi mumkin. Ochlik holati oshqozonning dildirashi orqali tavirlangan. O'xshatish etaloni sifatida meduzaning tanlanishi yaponlar uchun tabiiy bo'lsa-da, boshqa xalqlar uchun tugal tasavvur bermasligini aytib o'tish lozim. Lekin bu qurilmani yozuvchi ideostiliga oid esda qoladigan, original etalon sifatida baholash mumkin.

Yapon lingvomadaniyatida sholi va umuman guruch bilan bog'liq so'zlar, tushunchalar, o'xshatishlar talaygina. Yapon oshxonasida guruch non o'rnini bosadigan egulik hisoblanadi. Nonushtadan kechki ovqatgacha har vaqt har dasturxonda albatta guruchli egulik qo'yiladi. Bu tabiiy o'laroq badiiy asarlarga ham kirib borgan. Kobo Abening asarlarida ham guruch va sholi bilan bog'liq o'xshatishlar ko'p kuzatiladi. Masalan:

Yo'q, yo'q, bular xuddi sholi donasidek keladi, tulari ham qo'ng'ir. – Ye, shunaqa degin. Bo'lmasa u kamalak qo'ng'iz ekan. (43-b.)

Romanning o'zbekcha tarjimasini so'z boshisini yozgan professor A.Saidov to'g'ri ta'kidlaganidek, “Kobo Abeni tushunib etish uchun u tomonidan tasvirlangan zamin va tabiatga, u o'sib ulg'aygan madaniy muhitga murojaat qilish darkor. Yozuvchining vatani – Yaponiya eng qadimiy an'analar, ayni paytda G'arb madaniyatini o'ziga faol singdirayotgan davlatdir. Shuning uchun yapon yozuvchisining asarlari ham o'tmish va zamonaviylikning, Sharq va G'arbning chorrahasida, savollar va ularga yangi-yangi savollar tug'diradigan javoblarni taqqoslashda dunyoga kelgan. Yaponiyaning zamonaviy adabiyotida Kobo Abe alohida o'rin tutishi shu bilan izohlanadi.”⁷

Yozuvchi bir o'rinda qorong'ida yoqilgan cho'ntak fonarining shu'lasini konkretlashtirish uchun tilla qushga o'xshatadi:

Cho'ntak fonarining shu'lasi xuddi tilla qushdek erkakning oyoqlari tagidan uchib o'tdi. (201-b.)

⁷ Saidov A. Kobo Abэ: Адабиёт чўлқувари / Кобо Абэ, «Кумдаги хотин». «Янги аср авлоди», 2016. –Б.4.

Bu konstruksiyada o'xshatishning to'rt unsuri ham qatnashmoqda: 1) o'xshatish sub'ekti: *shu'la*; 2) o'xshatish etaloni: *qush*; 3) o'xshatish asosi: *uchib o'tmoq*; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi: *-dek*. Aytish mumkinki, *shu'*laning tezkor harakati *qush*ning *uchib o'tishiga* qiyoslanmoqda. *Qush* ham har qanday *qush* emas, *tilla qush*. Demak, tarjimon obrazli ifoda yaratish tamoyiliga amal qilgan. Yeslash joizki, "Tilshunos Katarina Rays ta'rificha, tarjima amaliyotida asosiy holat matnning turli-tumanligiga bog'liq bo'lib, olima quyidagi matn turlarini keltirib o'tadi: a) pragmatik matn; b) badiiy matn; v) og'zaki matn. Birinchisida tarjimon aniqlik va muqarrarlikka, ikkinchisida obrazlilikka; uchinchisida esa suhbatdosh nutqining mazmuniga asosiy e'tiborni qaratmog'i lozim bo'ladi."⁸

Kobo Abening "Qumdagi xotin" romani tasviriy vositalarga boy, badiiy barkamol asar hisoblanadi. Muallif qo'llagan o'xshatish qurilmalar tamoman milliy mentalitetga asoslangan bo'lib, ularda yapon xalqiga xos nozik kuzatishlar, yaponlarga xos dunyoga qarash tarzi aniq va betakror tarzda ifodalangan, tarjimon esa buni juda mukammal tasavvur eta olgan.

Yana misollar tahliliga o'tamiz:

Toki shamollar esishda, daryolar oqishda, dengizlar to'lqinlanishda davom etar ekan, erdan yangidan-yangi qum uyumlari ajralib chiqib, xuddi jonli maxluqlardek turli tomonga yoyilishda davom etadi. (33-b.) 風が吹き、川が流れ、海が波うっているかぎり、砂はつぎつぎと土壌の中からうみだされ、ま生き物のように、ところきらわず這ってまわるのだ。 [Kaze ga fuki, kawa ga nagare, umi ga namiutte iru kagiri, suna wa tsugitsugi to dojō no naka kara umidasa re, ma ikimono no yō ni, tokoro kirawazu hatte mawaru noda.] So'zma-so'z tarjimasi: *Shamol essa, daryo oqib, dengiz to'lqinlanar ekan, qum tuproqdan birin-ketin to'kilib, jonlidek sudralib boraveradi.* (123-b.)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'xshatishlar eng ta'sirchan tasviriy vositalardan biri sifatida badiiy matnda tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda faol ishtirok etadi. O'xshatishlar badiiy matnda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo'lgan qurilmalardir. O'xshatish qurilmalar etalonining miqdoriga ko'ra sodda hamda murakkab o'xshatishlarga bo'linadi. Sodda o'xshatish qurilmalarda o'xshatish etaloni bitta, murakkab o'xshatish qurilmalarda bittadan ortiq bo'ladi. Zanjirsimon o'xshatish qurilmalar murakkab o'xshatishlarning bir ko'rinishi bo'lib, bir necha etalon asosida shakllanadi. Kobo Abening "Qumdagi xotin" asarida o'xshatishlarning zanjirsimon konstruksiyasidan keng foydalanganligi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kobo Abe. Kumların Kadını. Orijinal Adı: Suna Nu Onna. Çeviren: Barış Bayıksel. İstanbul, Monokl Yayınları. 2020. 184 s.

⁸ Бу ҳақда қаранг.: Холбеков М. Таржима назарияси фан сифатида. // Жаҳон адабиёти, 2013 йил, 4-сон.

2. Bumatova A. She'riy tarjimada ma'no talqini. "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnal. № 6/2019. –B. 132-152. journal.fledu.uz..
3. Yo'ldoshev M.M. Cho'lponning badiiy til mahorati: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 24 b.
4. Kobo Abe "Qumdagi xotin". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 352 b. Tarjimonlar: Vahob Ro'zimatov, Yerkin Yernazarov. So'zboshi muallifi va mas'ul muharrir: A.X.Saidov.
5. Kobo Abe. Jençına v peskax. V. S. Grivnin, perevod. Moskva, Izdatelstvo Azbuka.2017.
6. Lebedova L. Ustoychivye sravneniya russkogo yazyka. –Krasnodar: Kubinskiy GU, 2003. –S. 3.
7. Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli milliy tafakkur mahsuli // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. – №3. – B. 19-24.
8. Nekrasova N. Sravneniya obşeyazykovogo tipa v aspekte sopostavitelnogo analiza xudojestvennyxidiolektov // Lingvistika i poetik. –M.: Nauka, 1979. –S. 225.
9. Rixsieva G. Tarjima nazariyasi va tanqidi muammolari. / «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2014 yil 10-son. (Davra suhbatini Ahmad Otaboev tayyorlagan.)
10. Sabirov M. (2022). O'xshatishlarni tarjima qilish xususiyatlari . Pervodovedenie: problemy, resheniya i perspektivy, (1), 91–93. https://inlibrary.uz/index.php/translation_studies/article/view/6010.
11. Saidov A. Kobo Abe: Adabiyot cho'lquvari / Kobo Abe, «Qumdagi xotin». «Yangi asr avlodi», 2016. –B.4.
12. Usmonov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha fals. dok. (PhD) diss. avtoref. –Andijon, 2019. –B.32.
13. Hakimzyanov F. O slovare ustoychivyx sravneniy tatarskogo yazyka // Rossiyskaya tyurkologiya. –Moskva-Kazan, 2010. -№2. –S. 80.
14. Xolbekov M. Tarjima nazariyasi fan sifatida. // Jahon adabiyoti, 2013 yil, 4-son.